

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

JABBOROV JAMSHID AZIMOVICH

**MA'NAVIY EHTIYOJLAR YUKSALISHI JAMIYAT
RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI SIFATIDA**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Jabborov Jamshid Azimovich

Ma'naviy ehtiyojlar yuksalishi jamiyat rivojlanishining muhim omili sifatida 3

Жабборов Жамшид Азимович

Рост духовных потребностей как фактор общественного прогресса..... 21

Jabborov Jamshid Azimovich

Growth of spiritual needs as a factor of social progress 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

JABBOROV JAMSHID AZIMOVICH

**MA'NAVIY EHTIYOJLAR YUKSALISHI JAMIYAT
RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI SIFATIDA**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2021.3.PhD/Fal625 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Erkayev Abduraxim Panjiyevich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponenlar

Yaxshilikov Jo'raboy Yaxshilikovich
falsafa fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Asliddin Tursunovich
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№44-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.)

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar, globallashuv va "axborot portlashi", geosiyosiy ziddiyatlarning kuchayishi odamlarning ongi va dunyoqarashiga katta bosim o'tkazmoqda. Inson global axborot oqimi hamda iste'mol bozorining, shu jumladan bo'sh vaqtini to'ldirishga qaratilgan ko'ngilocharlik industriyasi takliflari oldida o'zini biroz yo'qotib qo'ymoqda, uning ongiga turli axborotlar yordamida tajovvuzkor xurujlar qilinmoqda. Yopirilib kelayotgan axborotni, ko'ngilochar industriya mahsulotlarini tekshirib, tahlil qilib, foydalisini foydasizidan, to'g'risini yolg'on va sohtasidan ajratish oddiy kishi uchun nihoyatda qiyin. Shu sababdan, yosh avlodda mustaqil va tanqidiy fikrlashni, tafakkur erkinligini shakllantirish, undagi sog'lom ma'naviy ehtiyojlarni rivojlantirish davr talabiga aylanmoqda.

Dunyoning bir qator yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarida kishilik jamiyatida yangi bilimlar, texnologiyalar, axloqiy, huquqiy, estetik me'yorlar paydo bo'lishini aniqlash va ularni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-nazariy va amaliy-fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotiga ta'sir etuvchi omil sifatida ma'naviy ehtiyojlarning paydo bo'lishi, anglanishi, qondirilishi, ular tarkibining o'zgarishi yoki yangi-yangi ehtiyojlarning paydo bo'lishiga oid olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, umumjahon ilmiy taraqqiyot tendensiyalaridan ortda qolmaslik uchun, bir tomondan, ma'naviy ehtiyojlarning shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish, ikkinchi tomondan esa, jahonda bu borada ilgari surilgan konseptual talqinlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish bugungi kunda ilmiy jamoatchilik oldida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda ma'naviyatni yuksaltirish Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning ustuvor masalalaridan biridir. "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat"¹. Shu nuqtai nazardan, ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, ma'naviy ehtiyojlarning umummilliy manfaatlar va qadriyatlar tizimi bilan bog'liqligi, ularning ijobiy yoki salbiy ahamiyat kasb etishini belgilovchi omillar, sog'lom ehtiyojlarni rivojlantirish kabi masalalar ustida izchil nazariy va ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini

¹ Mirziyoyev Sh.M. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Xalq so'zi. 2021y., №13 (7793).

sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" va PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirish masalalari qadimdan jahon olimlari diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Falsafiy tafakkur tarixida Sharq va G'arb mutafakkirlari tomonidan yaratilgan insonning ijtimoiy mohiyati, tafakkuri, ma'naviy munosabatlari, ehtiyojlar tizimi, hayotiy talablari haqidagi dastlabki fundamental xulosalar va inson ma'naviyati haqidagi ijtimoiy g'oyalar falasafiy fanlar tizimida muhim manbalar hisoblanadi.

XX asrga kelib shaxs va jamiyat ma'naviy ehtiyojlarining shakllanish qonuniyatlari o'rganish ijtimoiy falsafaning ahamiyatli muammolaridan biriga aylandi. Bu davrda yashab, turli sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borgan A.Maslou¹, A.Marshall, H.Murray, J.Gelbreyt, F.Kotler, J.Keynes², Z.Freyd, E.Fromm³ va boshqa olimlar inson ehtiyojlarini o'z sohalaridan kelib chiqib tadqiq qiladi. Ular tomonidan ilmiy jamoatchilik hukmiga havola qilingan monografiya, risola va maqolalarda nafaqat shaxs ehtiyojlarining ma'no-mazmuni, turlari va tasnifi, ularning yuksalishiga ta'sir etuvchi omillar, balki jahonda yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarning jamiyat ma'naviy hayotiga ta'siri xususida ham fikr yuritiladi.

Ehtiyojlarni o'rganishga XX asr ikkinchi yarmida faylasuflar, iqtisodchilar va sotsiologlardan ko'ra ko'proq psixologlar e'tibor qaratishdi. Sobiq ittifoq davrida psixologiya fanining rivojlanishi ehtiyoj, xususan ruhiy-ma'naviy ehtiyojlar haqida ko'plab konsepsiyalar, qarashlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. B.G.Anan'ev⁴, L.S.Veygotskiy, Y.I.Ignatev, A.N.Leontev⁵, A.R.Luriya, A.B.Petrovskiy, L.S.Rubinshteyn kabi olimlar ijtimoiy fanlar tizimida (asosan, psixologiya, sotsiologiya) inson ehtiyojlari, ma'naviy (ruhiy – ba'zi tadqiqotlarda) ehtiyojlarning tabiati, ularning shaxs hayotidagi o'rni, his-tuyg'ular, qiziqishlar, qobiliyat,

¹ Маслоу А.Х. Мотивация и личность. 3-е издание, "Питер", Мастера психологии (Питер), 2014, - 600 с.

² John Maynard Keynes. The general Theory of Employment, Interest and Money. Publishers: Stellar Classics. 2016., -168 p.

³ Фромм Э. Здоровое общество. Перевод. Т.В.Банкетова, С.В.Карпушина. Издание на русском языке AST Publishers. - М.: 2011 г., - 480 с.

⁴ Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. - М.: Наука, 2001. - 258 с.

⁵ Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы и эмоции // Психология мотивации и эмоций: учебное пособие / ред. Ю.Б. Гиппенрейтер, М.В. Фаликман. – Издание 2-е, стереотипное. – М.: ЧеРо: Омега-Л: МПСИ, 2006. - С. 57-79.

tafakkur, faoliyat va o'zaro munosabatlarning ma'naviy ehtiyojlar shakllanishidagi ahamiyati, ehtiyojlarni yuksalish mexanizmlari va qonuniyatlarini ochishga oid ko'plab tadqiqotlar olib borgan.

XXI asr MDH davlatlari ilm-fanida ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarning nazariy-ilmiy muammolari, evolyutsion bosqichlari va ko'plab ijtimoiy-falsafiy ma'lumotlar, turli farazlar, ma'naviy ehtiyojlarning turli qatlam vakillari orasida rang-barang namoyon bo'lishi, "haqiqiy" va "yolg'on" ehtiyojlar orasidagi chegarani aniqlash pozitsiyasi, ehtiyoj – inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida uning amaliy va nazariy faoliyati orqali yuzaga chiqishi nazariy jihatdan N.M.Berejnoj¹, L.A.Belyayeva², Y.V.Gaynutdinova, V.S.Lesenko, A.R.Nurova, S.I.Petrova, Y.A.Yusupova, Y.A.Starodubseva kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan.

So'ngi yillarda yurtimimiz olimlari tomonidan mustaqillikning ma'naviy asoslari, ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatiga oid ko'plab ilmiy-tadqiqot asarlari, monografiyalar, maqolalar, ilmiy-ommabop kitoblar paydo bo'ldi. Ehtiyojlarni tasniflash, ular tizimida ma'naviy ehtiyojlarning o'rni, uning o'ziga xosligi, yuksalishi yoki pasayishi, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida bir necha umumiy e'tirof mazmunidagi maqolalar yozilgan. Ushbu yo'nalishda mamlakatimiz yetakchi olimlaridan A.Erkaev³, J.Yaxshilikov, N.Muhammadiyev, E.Umarov, M.Abdullaev, E.G'G'oziyev⁴, A.Mavrulov, M.Axunovlarning kitoblari va maqolalarini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, A.Safarov oqilona ehtiyojlarning shakllantirish zaruriyatini, Z.Asrarova shaxs ehtiyojlari va ularning falsafiy jihatlarini, A.Muxtarov⁵ g'oya va mafkuralar shakllanishining ijtimoiy-tarixiy genezisining manfaat va ehtiyojlar bilan mutanosibligini, Z.Boytemirova⁶ ma'naviy ehtiyojlar tarkibidagi axloqiy ehtiyojlarni, M.Nomuratova⁷ ma'naviy ehtiyojlar tizimini o'rganib, ularning ijtimoiy-falsafiy asoslarini nazariy tahlil qiladi. Olimlarimiz tomonidan ma'naviy ehtiyoj masalasi yetarli darajada o'rganilmaganligi shu sohada ilmiy tadqiqot olib borishimizga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish" mavzusidagi A-1-173 raqamli amaliy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ma'naviy ehtiyojlarning mazmun-mohiyati va jamiyat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish omillarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berishdan iborat.

¹ Бережной Н.М. Человек и его потребности / Под ред. В.Д. Диденко; Моск. гос. ун-т сервиса. - М.: Форум, 2000. - 170 с.

² Беляева Л.А. Человек и его потребности. Учебное пос. / Урал. гос. пед. ун-т. - Екатеринбург, 2009. - 165 с.

³ Эркаев А.П. "Маънавият – миллат нишони". -Т.: "Маънавият", 1997. 180-б.

⁴ G'oziyev E. Umumiy psixologiya. -T., 2018. - 352 b.

⁵ Muxtarov A. Milliy g'oya takomilida ehtiyoj va manfaatlar birligi. Fal. fan. dok. ... diss. avtoref. -Toshkent: O'zMU, 2011, -44 b.

⁶ Boytemirova Z.D. Shaxs axloqiy ehtiyojlarini shakllantirish omillari. Fal. fan. nom. ... diss. avtoref. -Toshkent: O'zMU, 2008, -27 b.

⁷ Nomuratova M.Q. Jamiyat taraqqiyotidagi ma'naviy ehtiyojlarning falsafiy tahlili. Fal. fan. nom. ... diss. avtoref. - Toshkent: O'zMU, 2011, -27 b.

Tadqiqotning vazifalari:

ma'naviy ehtiyojlar mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish shakllari, inson va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida qarashlarni o'rganib, umumlashtirish, yetarlicha aniqlanmagan muammolarni aniqlash;

ma'naviy ehtiyojlar rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy va madaniy omillarini tahlil qilish;

postmodern jamiyat ziddiyatlarining ma'naviy ehtiyojlar rivojlanishiga ziddiyatli ta'sirini ko'rsatish;

inson va jamiyat ma'naviy ehtiyojlarini yuksaltirish Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning muhim omili ekanligini asoslash;

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimini obyektiv zaruratga moslashtirish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati va ma'naviy ehtiyojlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda aloqadorlikni tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ma'naviy ehtiyojlarning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini ma'naviy ehtiyojlar yuksalishi va jamiyat taraqqiyoti o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni ilmiy tahlil etish jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning analiz va sintez, tizimlilik, tarixiylik va mantiqiylik, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, taqqoslash, sotsiologik so'rov, dialektik, sinergetik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yangi O'zbekistonda inson va jamiyat ma'naviy ehtiyojlarini zamonaviy taraqqiyot talablariga mos yuksaltirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmlarini vujudga keltirish, aqliy-intellektual, hissiy-emotsional muhit va vositalarni yaratish Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning birlamchi omili ekanligi falsafiy asoslangan;

globallashuv tendensiyalari, IT-, nano-, bio-, kognitiv texnologiyalar rivoji, sun'iy intellekt, global axborot bozorining bosimi tufayli milliy qadriyatlar tizimi assimilyatsiyaga uchrab zaiflashayotganligi, texnokratik qarashlar kuchayganligi, sog'lom ma'naviy ehtiyojlarning bir qismi tashqi ta'sirlar va ichki rivojlanish tendensiyalariga ko'ra deformatsiyaga uchrayotganligi isbotlangan;

zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi oqibatida insonlarning milliy-madaniy qadriyatlar tizimidagi bilimlarini yuksaltirish, tafakkur erkinligini ta'minlash, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish xususiyatlari, mehnat taqsimoti, jamiyat barqarorligi, ijtimoiy adolat, huquq va erkinlik kabi omillarning ma'naviy ehtiyojlar o'sishiga ziddiyatli ta'siri mantiqiy dalillangan;

yangilanayotgan O'zbekistonda zamonaviy, raqobatbardosh ta'lim makonini jahon talablari va andozalariga mos yaratish, ilm-fan sohalarini rivojlantirish, ta'lim-tarbiya tizimini obyektiv zaruratga moslashtirish va ma'naviy ehtiyojlar o'rtasidagi o'zaro dialektik bog'liqlik ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dissertatsiya ilmiy natijalari asosida sohaga oid davlat organlari, jamoat tashkilotlarining mavzu doirasidagi amaliy chora-tadbir dasturlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ilmiy tadqiqot ishidagi jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirish, ma'naviy ehtiyojlarni qondirish va yuksaltirishga oid amaliy tavsiyalardan davlat organlari va OAV larining ma'naviy targ'ibot faoliyatida foydalanilgan bo'lib, bu natijalar o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarining samaradorligi oshishiga xizmat qilgan;

vizual madaniyat kuchayib, kitobiy madaniyatga qiziqish biroz susaygan, ko'ngil ochar madaniy mahsulotlarga talab oshgan hozirgi sharoitda odamlarning hayoti va faoliyatida ko'proq qaysi ehtiyojlar muhimroq ekanligini aniqlash maqsadida ijtimoiy so'rovnoma (IS) ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilgan ilmiy konferensiyalar materiallari, OAK ro'yxatidagi jurnallar, xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qo'lga kiritilgan ilmiy natijalardan ijtimoiy falsafa, ma'naviyat asoslari, sotsiologiya, psixologiya, etika, estetika va ma'naviy ehtiyojlar tizimini o'rganuvchi boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid mavjud nazariy bilimlarni yanada boyitishda, takomillashtirishda, jamiyat hayoti va ma'naviy ehtiyojlarning o'zaro aloqadorligini o'rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlarida, ma'naviy tarbiyaga bag'ishlangan seminar-treninglarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, unda ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat ta'lim yo'nalishida "Falsafa", "Ijtimoiy falsafa", "Ma'naviyat asoslari", "Kognitiv psixologiya", "Sotsiologiya" fanlari, AL va maktablarda "Tarbiya" fani bo'yicha ma'ruza matnlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash, seminar mashg'ulotlarida foydalanish, ma'naviy tadbirlar dasturini ishlab chiqish, shuningdek, yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi ruhida tarbiyalash, komil insonni shakllantirish, uning ma'naviy ongi va saviyasini oshirish, ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy ishlanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ma'naviy ehtiyojlar yuksalishi jamiyat rivojlanishining muhim omili ekanligini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Yangi O'zbekistonda inson va jamiyat ma'naviy ehtiyojlarini zamonaviy taraqqiyot talablariga mos yuksaltirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmlarini vujudga keltirish, aqliy-intellektual, hissiy-emotsional muhit va vositalarni yaratish Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning birlamchi omili ekanligiga doir ilmiy taklif-tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2021 yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturining "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" mavzusida aholi orasida sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022 yil 29 martdagi 02/474-son ma'lumotnomasi). Natijada, Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy

targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligini mustahkamlashga, Dasturda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan;

globallashuv tendensiyalari, IT-, nano-, bio-, kognitiv texnologiyalar rivoji, sun'iy intellekt, global axborot bozorining bosimi tufayli milliy qadriyatlar tizimi assimilyatsiyaga uchrab zaiflashayotganligi, texnokratik qarashlar kuchayganligi, sog'lom ma'naviy ehtiyojlarning bir qismi tashqi ta'sirlar va ichki rivojlanish tendensiyalariga ko'ra deformatsiyaga uchrayotganligiga oid ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalardan 2015-2017 yillarda bajarilgan A-1-173 raqamli "Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihada belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2022 yil 9 sentyabrdagi 04/3402-son ma'lumotnomasi). Natijada amaliy grant loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga va jamiyatda ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda, shuningdek, postmodern jamiyatning ziddiyatli tendensiyalariga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirishda nazariy asos bo'lib xizmat qilgan;

zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi oqibatida insonlarning milliy-madaniy qadriyatlar tizimidagi bilimlarini yuksaltirish, tafakkur erkinligini ta'minlash, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish xususiyatlari, mehnat taqsimoti, jamiyat barqarorligi, ijtimoiy adolat, huquq va erkinlik kabi omillarning ma'naviy ehtiyojlar o'sishiga ziddiyatli ta'siri mantiqiy dalillanganligiga oid taklif va tavsiyalardan Yoshlar ishlari agentligining "Yosh kitobxon", "Munzara" va "Ibrat – tillar oromgohi" loyihalari hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarining Qashqadaryo viloyati bosqichini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022 yil 8 iyuldagi 4-13-23-2051-son ma'lumotnomasi). Natijada yoshlarga jamiyat rivojida ma'naviy ehtiyojlarning o'rni, ularning o'zaro aloqadorligi, ma'naviy ehtiyojlar rivojlanishiga ijtimoiy-madaniy omillarning ijobiy ta'siri haqida ma'lumot berishga xizmat qilgan;

yangilanayotgan O'zbekistonda zamonaviy, raqobatbardosh ta'lim makonini jahon talablari va andozalariga mos yaratish, ilm-fan sohalarini rivojlantirish, ta'lim-tarbiya tizimini obyektiv zaruratga moslashtirish va ma'naviy ehtiyojlar o'rtasidagi o'zaro dialektik bog'liqlikka oid ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalardan "Qashqadaryo teleradiokanali" tomonidan 2022 yilda efirga uzatilgan "Intellekt" ko'rsatuvininig ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2022 yil 23 iyundagi 17-05/200-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, keng jamotchilik ongiga O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya, ilm-fan sohalaridagi islohotlar va ma'naviy ehtiyojlar o'rtasidagi o'zaro bog'liq bo'lgan ilmiy g'oyalarni singdirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumandagi ma'ruzalarda aprobatysidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (shulardan, 5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 124 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilangan, qo'llanilgan metodlar, tadqiqot obyekti hamda predmeti aniqlashtirilgan, ilmiy ishning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ehtiyojlar tushunchasi: mohiyati, mazmuni. Ma'naviy ehtiyojlar o'rganilishining nazariy-metodologik asoslari”**ga bag'ishlangan bo'lib, ilm-fanda ehtiyojlar muammosining talqini, ehtiyojlar tasnifi va funksional xususiyatlari, ma'naviy ehtiyojlar jamiyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismi ekanligi tahlil qilingan. Olib borilgan tadqiqotlarda jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ma'naviy ehtiyojlar yuksalishi har davrda dolzarb mavzu ekanligi asoslangan.

Ehtiyoj muammosiga oid ko'plab g'oyalar, qarashlar hamda bahsli munosabatlar miloddan avvalgi VII-VI asrlarda paydo bo'la boshlagan. Antik davr faylasufi Suqrot tashqi olam inson ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan darajada mukammal emasligini, Platon inson ehtiyojlarini qondirish aql-idrok izmida bo'lishi muhimligini ta'kidlaydi. Arastu ehtiyojlarga iqtisodiy jihatdan yondoshib, davlatning paydo bo'lishida ularning ahamiyatini tushuntiradi.

Sharq-islom dunyoqarashi negizidagi buyuk allomalar Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy ijodiyotida ifodalangan inson ma'naviyati haqidagi ijtimoiy g'oyalar va qarashlarda inson tabiatining mazmun-mohiyatini aql, axloq, odob, til, mehnat qilish, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish bilan bog'lab tavsif hamda tasniflangan, tarbiyaviy muhitiga doir qimmatli fikrlar yoritilgan. Ular tomonidan ehtiyojlarning jamiyat kelib chiqishiga ta'siri haqidagi qarashlarida zo'ravonlik va majburlash ta'limotini inkor etilgan, inson jamoasining kelib chiqishi asosida tabiiy ehtiyoj yotganligi haqidagi nazariya ilgari surilgan.

Jahon falsafiy ilmining atoqli vakillari I.Kant, Gegel, Z.Freyd, J.Keynes, A.Maslou va boshqa olimlar tomonidan ehtiyojlar – individ rivojlanishi va faol darajada o'zini namoyon qilishining sharoitlarga bog'liq bo'lgan omili ekanligi ta'kidlandi hamda ularni biologik, fiziologik, psixologik hamda ijtimoiy-ma'naviy ko'rinishlarda farqlanishi aytib o'tildi.

Rus olimi N.M.Berejnoy ehtiyoj – inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida uning amaliy va nazariy faoliyati orqali yuzaga chiqishini,

Y.V.Gaynutdinovanning ilmiy izlanishlarida “haqiqiy” va “yolgʻon” ehtiyojlar orasidagi chegarani aniqlash pozitsiyasini yoritgan. Maʼnaviy ehtiyojlarning turlicha namoyon boʻlishini rus faylasufi A.R.Nurova talabalar jamoasida olib borgan tadqiqotlarida aniqlagan. Y.A.Starodubseva maʼnaviy ehtiyojlar insonni har tomonlama takomillashtiradigan, tarbiyalash manbai sifatida eʼtirof etgan. L.A.Belyayeva inson ehtiyojlarining faoliyat bilan bogʻliqligi, aksiologik, ijtimoiy-falsafiy asoslari chuqur tahlil qilgan. S.I.Petrova ijtimoiy-maʼnaviy ehtiyojlarni ijtimoiy falsafaning muhim kategoriyasi sifatida oʻrgangan.

Mamlakatimiz faylasuf olimlari (A.Erkayev, J.Yaxshilikov, N.Muhammadiyev, E.Umarov, M.Abdullayev, E.Gʻoziyev, A.Safarov, A.Mavrulov, A.Muxtarov, Z.Asrarova, Z.Boytemirova, M.Nomuratova) tomonidan ehtiyojlarni tasniflash, ular tizimida maʼnaviy ehtiyojlarning oʻrni, uning oʻziga xosligi, yuksalishi yoki pasayishi, ularga taʼsir koʻrsatuvchi omillar, gʻoya va mafkuralar shakllanishining ijtimoiy-tarixiy genezisining manfaat va ehtiyojlar bilan mutanosibligi, maʼnaviy ehtiyojlar tarkibidagi axloqiy ehtiyojlar, maʼnaviy ehtiyojlar tizimi oʻrganilib, ularning ijtimoiy-falsafiy asoslari nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Mazkur bobda ehtiyojlarning barqaror guruhlarini aniqlashning qiyinligi va noaniqligi koʻplab tadqiqotchilar tomonidan ehtiyojlarning eng munosib tasnifini yaratilmasligiga olib kelishini koʻrish mumkin. Olimlarning turlicha tasnifi oʻz sohalaridan, unda ehtiyojlarning ahamiyatidan kelib chiqib yoritilgan: faylasuflar, iqtisodchilar, psixologlar, sotsiologlar, maʼnaviyatshunoslar ehtiyojlar tizimini turli guruhlariga ajratgan¹. Dissertant tomonidan ehtiyojlarning turli shakllari, xususiyatlari, sifat, belgi, miqdor va boshqa jihatlari bilan bir-biridan farqlanishiga metodologik jihatdan yondashilib, turli guruhlariga ajratilgan: subyektiga koʻra ehtiyojlar – individual, guruhiy-jamoaviy, tabaqaviy, milliy, umuminsoniy; mazmuniga koʻra ehtiyojlar – tabiiy-fiziologik, moddiy-iqtisodiy, ijtimoiy-maʼnaviy; faoliyat turiga koʻra ehtiyojlar – qondirilishi jihatidan, yakka (individual), birgalikda; kelib chiqishiga koʻra ehtiyojlar – tabiiy, madaniy; ehtiyojlarni qondirishdan qanday maqsad koʻzlanganiga – shaxsiy ehtiyojlar, ishlab chiqarish (yaratuvchan); insonga taʼsir etishiga koʻra – sogʻlom, nosogʻlom.

Maʼnaviy ehtiyoj moddiy ehtiyojlar bilan bogʻliq holda rivojlanadi. “Maʼnaviy ehtiyojlar – davlat, jamiyat va shaxsning barqaror turmushida moddiy ehtiyojlardan boshqa maʼnaviy talablar, manfaatlar va ehtiyojlarini qondirishga boʻlgan intilishini ifodalovchi tushuncha”², - deyiladi maʼnaviyatga doir asosiy tushunchalar izohli lugʻatida. Maʼnaviy ehtiyojlar ijtimoiy, siyosiy, falsafiy, ilmiy, axloqiy, diniy, huquqiy va boshqa yoʻnalishlarda aniq namoyon boʻladi. Maʼnaviy ehtiyojlarning qondirilmasligi jamiyat barqaror hayotida turli buzgʻunchi gʻoyalarning paydo boʻlishiga olib kelishi, ayrim hollarda davlat va jamiyat hayotiga jiddiy xavf tugʻdirishi mumkin.


Dissertant mulohazalariga koʻra, maʼnaviy ehtiyojlarning qondirilishi shaxs va jamiyat hayotining yuksalishiga sabab boʻlib, uni taraqqiyotga yoʻnaltirib, oʻz

¹ Бережной Н.М. Человек и его потребности / Под ред. В.Д. Диденко; Моск. гос. ун-т сервиса. - М.: Форум, 2000. - 170 с.

² Maʼnaviyat: asosiy tushunchalar izohli lugʻati. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2009. - 325 b.

mohiyatida inson maqsadlari, manfaatlari va intilishlarini ifodalaydi. Ma'naviy ehtiyojlari yuksak bo'lgan xalq yoki millat erkin va farovon hayot kechirib, ilm-fan hamda zamonaviy texnologiyalarga nisbatan munosabatlari ham yuqori darajada bo'ladi. Ma'naviyat, ilm-fan, adabiyot va san'ati, turmush sharoitlari, madaniy saviyasi iqtisodiyoti rivojlangan xalqlarda yuqori bo'ladi. Bular o'z navbatida demokratik erkinliklarni, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish imkonini kuchaytiradi. Mustaqilligi ta'minlangan, xavf-xatardan holi (xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojining qondirilishi) jamiyatda yashayotgan odamlarning yaratuvchanlik qobiliyatini ishga solib taraqqiyotga erishishi osonlashadi. Ma'naviy ehtiyojlar insonning kamolotga intilishi, bilim egallashi, yuksak ideallarga ergashishi orqali namoyon bo'ladi. O'z mohiyatida ijodkorlik, bunyodkorlik va yaratuvchanlik g'oyalarini mujassam etgan ma'naviy ehtiyojlar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yuksalishiga olib kelishi aniqlangan.

Ma'naviy ehtiyojlar yuksak ehtiyoj hisoblanib, ular qator guruhlariga ajratilib, tahlil qilingan:



1-rasm. Ma'naviy ehtiyojlar

Mazkur bob yakunida ma'naviy ehtiyojlar davlat, jamiyat va inson hayotidagi ma'naviy talablar, manfaatlar va zaruriyatni qondirishga bo'lgan intilishini ifodalovchi tushuncha ekanligi, ijtimoiy, siyosiy, falsafiy, ilmiy, axloqiy, diniy, huquqiy va boshqa yo'nalishlarda aniq namoyon bo'lishi, ularning qondirilishi shaxs

va jamiyat hayotining yuksalishiga sabab bo'lib, uni taraqqiyotga yo'naltirib, o'z mohiyatida inson maqsadlari, manfaatlari va intilishlarini ifodalashi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Ma'naviy ehtiyojlar yuksalishi jamiyat rivojlanishining muhim omili ekanligi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ma'naviy ehtiyojlar yuksalishining ijtimoiy va madaniy asoslari, ma'naviy ehtiyojlarining empirik tahlili va postmodern jamiyat ziddiyatlarining ma'naviy ehtiyojlar rivojlanishiga ta'siri izchil tahlil qilingan.

Dissertantning fikricha, ma'naviy ehtiyojlarni yuksaltiruvchi ko'plab omillar mavjud bo'lib, ular ta'sirida ehtiyojlar paydo bo'ladi, anglaniladi, qondiriladi, yuksak ehtiyojlar paydo bo'lishiga shart-sharoit yaratiladi. Ushbu omillar quyidagilar: iqtisodiy omil; texnologik omil; ijtimoiy omil; demografik omil; geografik (mintaqaviy) omil; ma'naviy-madaniy omil; diniy omil; siyosiy va huquqiy omil.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, insonlarning ma'naviy ehtiyojlarini yuksaltirish uchun ularda tafakkur erkinligini ta'minlash, dunyoqarashini kengaytirish, insonlarning milliy-madaniy qadriyatlar tizimidagi bilimlarini yuksaltirish, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ma'naviy islohotlarni amalga oshirish, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ma'naviy-madaniy mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularning sifat darajasini oshirish lozim.

Inson ma'naviy ehtiyojlarining yuksalishiga ko'plab omillar aks ta'sir etib, jamiyatda turli salbiy holatlarning yuzaga chiqishiga sabab bo'lmoqda (natijalar ijtimoiy so'rovnoma doirasida aniqlangan). Ushbu salbiy omillar dissertant tomonidan guruhlariga ajratilgan: jamiyat moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishining pastligi, inson ehtiyojlarining eng zarurlari bilan cheklanishi; jamiyatda mehnat taqsimotining, jumladan aqliy mehnat taqsimotining ham yetarlicha rivojlanmaganligi; aholi oylik maoshlari va daromadining pastligi, iqtisodiy yetishmaslik; jamiyat ma'naviy hayotida buzg'unchi g'oyalarning hukmron bo'lishi; ota-onaning bola tarbiyasiga yetarlicha e'tibor bermasligi; malakali ish topish, turli muammolarni yechishda tanish-bilishchilikni kuchayishi; texnologik qoloqlik; ta'lim tizimidagi kamchiliklar; g'arbning ba'zi bir soxta qadriyatlarini jamiyat hayotiga kirib kelishi; insonlar o'rtasidagi ijtimoiy uzoqlashuv (begonalashuv); ijtimoiy notenglik, o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarishdagi shart-sharoitlar tafovuti; davlat siyosatidagi ayrim xatolar; qonunlarning ishlamasligi (mexanizm yo'qligi, nazorat yetishmasligi); insonlar ma'naviy saviyasining pastligi kabilarni kiritish mumkin.

Inson ma'naviy saviyasining real hayotda namoyon bo'lishini va o'sishini belgilovchi muhim omil sifatida ehtiyojlarni ijtimoiy jihatdan tahlil etish dolzarb masalalardan biridir. Shu sababdan ma'naviy ehtiyojlar, ularning qondirilishi hamda yuksalishini aniqlash maqsadida ijtimoiy so'rovnoma (IS) ishlab chiqilgan. Uning yordamida odamlarning hayoti va faoliyatida ko'proq qaysi ehtiyojlar muhimroq ekanligi aniqlangan.

“Ehtiyoj deganda nimani tushunasiz”, deb shaxsiy fikri so'ralganda, qatnashchilar turli variantlarda, har xil so'zlarda yashash uchun kerakli moddiy va ma'naviy resurslar, biror bir faoliyatni amalga oshirish uchun zaruriy vositalar,

insonning zarur bo'lgan, nimagadir muhtojligini anglatadigan ichki holati deb javob berdilar. 12 nafar respondent ehtiyojlarni pul topishga intilish deb baholashsa, 14 nafari esa javob bermagan. Demak, so'rovnoma ishtirokchilarining aksariyati "ehtiyojni inson hayoti uchun zarur moddiy va ma'naviy ne'mat" sifatida tushunadi.

Respondentlarning asosiy qismi "moddiy", "ma'naviy" va "jismoniy" ehtiyojlar borligini ta'kidladilar. Qatnashchilarning ba'zilar o'z javoblarida "maishiy", "texnologik", "moliyaviy", "kundalik" kabi ehtiyoj turlarini ham qayd etgan.

Jamiyatda insonlarning yashashi, har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo'lgan barcha moddiy va nomoddiy ne'matlarga talab ularning hayotiy ehtiyojlarini tashkil etadi. Inson aqlli mavjudotdir. U o'z ehtiyojlarini qondirish yo'lida turli harakatlarni amalga oshiradi, izlanadi, faollik ko'rsatadi. U kundalik turmush tashvishlari bilan bo'lib yuzaga kelgan ehtiyojlarini imkon darajasida qondirib borishadi. TV tomosha qilishi, ashula eshitishi, kitob o'qishi, tabiat bag'riga chiqishi va boshqa harakat yoki faoliyat yordamida ehtiyojlari qondiriladi. Bugungi jamiyat vakillari o'z ma'naviy ehtiyojlarini qanday tartibda qondirilishi tadqiqot ishida tahlil qilingan.

Odamlar asosan bo'sh vaqtlarida zamonaviy texnologiyalar yordamida (TV tomosha qilishi, kompyuter va smart texnologiyalardan foydalanish), o'zaro muloqotda bo'lish orqali (oila, qo'ni-qo'shnilar, mehnat jamoasi va atrof-muhitdagi insonlar va bilim olish, kitob o'qish orqali o'z ma'naviy ehtiyojlarini qondirishlari ma'lum bo'ldi.

Dissertantning fikricha, ma'naviy ehtiyojlarning qondirilmasligi yoki nosog'lom ehtiyojlar jamiyat ma'naviy hayotida turg'unlikni yuzaga keltirib, insonlar orasida turli illatlarni: axloqsizlik, mansabparastlik, dunyoparastlik, behayolik va boshqa salbiy holatlarni avj olishiga hizmat qiladi.

"Postmodern jamiyat ziddiyatlarining ma'naviy ehtiyojlar rivojlanishiga ta'siri" deb nomlangan paragrafda postmodern jamiyatning bir qator: ishlab chiqarishda yuksak texnologiyalarning qo'llanilishi, axborot texnologiyalarini jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib kelishi, softver (elektron aloqa xizmatlari) sohasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning uzviy tarmog'iga aylanishi, jahon taraqqiyotida globallasuv tendensiyasining vujudga kelishi, ommaviy madaniyat keng tarqalgan ijtimoiy hodisaga aylanishi, inson ongi, tafakkuri va xulq-atvori, jamiyat mentalitetining ancha o'zgarishi kabi belgilari dissertant tomonidan qayd etilgan.

Insonning sog'lom ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va yuksaltirish imkoniyatlari jamiyatda yuzaga keluvchi ko'plab muammolar ta'sirida cheklanmoqda yoki inkor etilmoqda. Dissertatsiyada globallasuv tendensiyalari, IT-, nano-, bio-, kognitiv texnologiyalar rivoji, sun'iy intellekt, global axborot bozorining bosimi tufayli milliy qadriyatlar tizimi assimilyatsiyaga uchrab zaiflashayotganligi, texnokratik qarashlar kuchayganligi, sog'lom ma'naviy ehtiyojlarning bir qismi deformatsiyaga uchrayotganligi yoritilgan.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, g'arbning kosmopolitik tusdagi madaniyati, urf-odati, turmush tarzi, standartlashgan, mazmunan sayoz, ba'zan odamlarni chalg'ituvchi mahsulotlari milliy qadriyatlar tizimining qashshoqlashishiga olib kelmoqda; postmodern jamiyatda ko'plab mumtoz qadriyatlarning deformatsiyaga

uchrashni tufayli ular o'rnini soxta qadriyatlar egallamoqda; texnokratik qarashlar ustunlik qilishiga, insoniy munosabatlar tanazzulga uchrashiga, begonalashish kuchayib, axloqiy me'yorlar darz ketishiga sabab bo'lmoqda; an'anaviy qadriyatlar – oilaviy qadriyatlar, qarindoshlik, do'stlik, o'rtoqlik, aksariyat axloqiy, estetik qadriyatlar inkor qilingan joyda oila va nikoh instituti yemirilmoqda.

Postmodern jamiyatda iste'molchilik psixologiyasidagi o'zgarishlar, mazmunan sayoz bo'lgan ommaviy madaniyat unsurlari ta'sirining kuchayib borishi ma'naviy ehtiyojlarga yuzaki, ayrim hollarda nosog'lom tus berayotganligi tadqiqotchi tomonidan tahlil qilingan.

Zamonaviy jamiyat ziddiyatlarining insonga salbiy ta'sirini minimallashtirishga erishish uchun ta'lim-tarbiya, birinchi galda ma'naviy tarbiya mazmunini, usul va vositalarini zamon talablarini hisobga olib, takomillashtirish zarur ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, dissertant tomonidan insonlarning ma'naviy duryoqarashini va mafkuraviy immunitetini shakllantirish, oilalarda, mahallalarda, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ma'naviy ehtiyojlar yuksalishiga xizmat qiluvchi professional darajada tayyorlangan asarlar, filmlar, ko'rsatuvlar, suratlar yaratish uchun davlat so'z va ijod erkinligini, intellektual mulk himoyasini yanada ko'proq qo'llab-quvvatlashi, qonunchilik bazasini mustahkamlashi hamda ijtimoiy va moddiy-iqtisodiy shart-sharoit yaratish orqali postmodern jamiyat ziddiyatlarining salbiy ta'sirini kamaytirish mumkinligi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Yangilanayotgan O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar chuqurlashishining ehtiyojlar yuksalishiga ta'siri” deb nomlanadi. Ushbu bobning birinchi paragrafi “Shaxs va jamiyat ma'naviy ehtiyojlarini yuksaltirish – Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning muhim omili” ekanligiga bag'ishlangan.

